



THE CONCEPT OF “COMPETITION” AND “HEALTHY ECONOMIC COMPETITION CULTURE”: CONTENT AND SCIENTIFIC-CONCEPTUAL FOUNDATIONS

Bakhtiyor Tolipov

Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor

Independent Researcher at Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: competition, culture of healthy competition, economic ethics, market economy, innovation, economic development, fairness.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article explores the essence of the concepts “competition” and “culture of healthy economic competition,” their scientific and conceptual foundations, and their significance within the modern economic system. Competition is viewed as a crucial factor for economic development, innovation, and market efficiency. The culture of healthy competition is defined as a socio-legal environment based on fairness, transparency, responsibility, and economic ethics. The study examines the institutional and moral determinants of fostering healthy competition in the national economy and its impact on social stability. The findings contribute to the enhancement of economic culture and the creation of a competitive and sustainable economic environment.

“RAQOBAT” VA “SOG‘LOM IQTISODIY RAQOBAT MADANIYATI” TUSHUNCHALARINING MAZMUNI, ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

Baxtiyor Tolipov

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: raqobat, sog‘lom raqobat madaniyati, iqtisodiy etika, bozor iqtisodiyoti, innovatsiya, iqtisodiy taraqqiyot, adolat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “raqobat” va “sog‘lom iqtisodiy raqobat madaniyati” tushunchalarining mohiyati, ularning ilmiy-konseptual asoslari hamda

zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o'zni tahlil qilingan. Raqobat iqtisodiy taraqqiyot, innovatsiyalar va bozor samaradorligining muhim omili sifatida ko'rib chiqiladi. Sog'lom raqobat madaniyati esa halollik, shaffoflik, mas'uliyat va iqtisodiy etikaga asoslangan ijtimoiy-huquqiy muhit sifatida talqin etiladi. Maqolada milliy iqtisodiyotda sog'lom raqobatni shakllantirishning institutsional va axloqiy omillari hamda uning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish va raqobatbardosh iqtisodiy muhit yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalarni o'z ichiga oladi.

ПОНЯТИЯ “КОНКУРЕНЦИЯ” И “КУЛЬТУРА ЗДОРОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОНКУРЕНЦИИ”: СОДЕРЖАНИЕ И НАУЧНО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ

Бахтиёр Толипов

Кандидат философских наук, доцент

Независимый исследователь

*Ферганского государственного университета,
Фергана, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: конкуренция, культура здоровой конкуренции, экономическая этика, рыночная экономика, инновации, экономическое развитие, справедливость.

Аннотация: В статье анализируются сущность понятий «конкуренция» и «культура здоровой экономической конкуренции», их научно-концептуальные основы и роль в современной экономической системе. Конкуренция рассматривается как важнейший фактор экономического развития, инноваций и эффективности рынка. Культура здоровой конкуренции определяется как социально-правовая среда, основанная на честности, прозрачности, ответственности и экономической этике. В статье освещаются институциональные и моральные аспекты формирования здоровой конкуренции в национальной экономике, а также её влияние на социальную стабильность. Результаты исследования направлены на развитие экономической культуры и формирование конкурентоспособной экономической среды.

Kirish. Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab, ular o'rtasida yashash uchun kurash muntazam ravishda davom etib kelmoqda. Buni turli tarixiy davrlarda mavjud bo'lgan real voqelikning mazmunidan kelib chiqqan holda muayyan maqsadlarni ko'zlagan musobaqa, raqobat tarzida amalga oshirilishi natijasida kishilik jamiyatining ba'zida tadrijiy, ba'zida esa inqilobiy tarzda o'zgarib borishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelganligida ko'rish mumkin. Shu sababli shaxs, elat, millat, davlat, ijtimoiy guruh, mehnat jamoalari, siyosiy yetakchilar, jamoat birlashmalari, xullas, kishilar o'rtasidagi bunday raqobatli munosabatlarning tub mohiyatini anglab yetishga bo'lgan intilish barchazamonlarda yashagan olimlarning diqqat e'tiborini o'ziga tortgan.

Raqobatning mazmuni, mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi, degansavolga iqtisodiy hayotning rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqib iqtisodchi olimlar tomonidan ta'riflar va tavsiflar berilgan. Jumladan, Nobel mukofoti sovrindori, avstriyalik iqtisodchi olim Fridrix A. Fon Xayek o'zining «Bilish, raqobat va erkinlik» nomli kitobida: "Raqobat – bu jarayon, u orqali odamlar bilimga ega bo'ladilar. Raqobat bilim va qobiliyatdan unumli foydalanishga olib keladi. Insoniylik ne'matlarining aksariyati bellashuv, raqobat orqali hosil qilingan. Raqobat – insonning aqliy qobiliyatini o'stirish, buyuk kashfiyotchi va tadbirkorlarni tarbiyalab yetishtirishning alohida vositasidir", [1;118.] degan bo'lsa, Rossiyalik iqtisodchi olim G.L. Azoev esa «Raqobat: tahlil, strategiya va amaliyot» nomli monografiyasida: "Raqobat bu alohida yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasida qandaydir maydonda bitta ko'zlangan maqsadga erishish yo'lidagi bellashuvdir", [2;5] degan fikrni ilgari surganlar.

Materiallar va metodlar. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan yozilgan ilmiy nashrlarda: "Raqobat – umumijtimoiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy jarayonlar qatnashchilari o'rtasidagi ko'proq foydaga erishishi uchun bo'ladigan kurashni anglatadi. Raqobat kurashi har qanday jamiyatda amal qiladi. Kishilarning iqtisodiy faoliyati boshqa faoliyatlarning asosini tashkil qilgani uchun kishilik jamiyati hayotida raqobat kurashi muhim rol o'ynaydi", [3;77] "Raqobat – bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun bir-biri bilan kurashi, ularning o'zaro bellashuvidir", [4; 223] "Raqobat – tovar ishlab chiqarish, sotish va xarid qilish uchun qulay mavqeni egallash uchun bozor ishtirokchilari o'rtasidagi kurash", [5;222] degan fikrni bildirganlar.

Ikkinchisi, strukturaviy jihatdan talqin qilish bo'lib, unga ko'ra raqobat–bozor iqtisodiyoti sharoitida yaratilgan shart-sharoitlar tufayli sotuvchi va xaridorning unda erkin harakat qilish darajasidir. Uchinchisiraqobatni funksional jihatdan talqin qilish bo'lib, unga ko'ra raqobat – eski bilan yangi, ijtimoiy hayotga kirib kelayotgan innovatsiyalar o'rtasidagi ziddiyat bo'lib, yashiringan narsalarning aniq bo'lishidir. Yuqorida keltirilgan "raqobat" tushunchasiga berilgan ta'rif va talqinlarni falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ularda: birinchidan, "raqobat"

tushunchasi raqobatning faqat bir ko‘rinishi asosida ta’riflanib, unga tizimli va kompleksli tarzda yondashilmaganligini; ikkinchidan, “raqobat” tushunchasiga har xil yondashuvlar asosida, xususan, ba’zi birlari raqobat – firmalar o‘rtasidagi bellashuv;

ikkinchidan, yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi kurash; uchinchilari, bozordagi sotuvchi va xaridorlarni yetarlicha ta’minlanish borasidagi ziddiyat; boshqalari esa vaziyat; intilish;

jarayon tarzda ta’riflanganligini, ya’ni bir xillilikning yo‘qligini; uchinchidan, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy, tabiiy-biologik sohalaridagi raqobatni o‘zida aks ettirmaganligini;

to‘rtinchidan, bu tushunchalarda raqobat turg‘un va o‘zgaruvchan harakatlarning dialektik birligi, tirik organizmning ma’lum va noma’lum bo‘lgan sharoitlarda o‘zini saqlay bilish uchun kurashish sifatida qaralmaganligini;

beshinchidan, mamlakatda mavjud bo‘lgan qonunchilik bilan bevosita bog‘lanmaganligini;

oltinchidan, jamiyatni boshqarish va uni harakatga keltiruvchi kuchlardan biri sifatida yoritilmaganligini ko‘rish mumkin.

Muhokama va natijalar. Ushbu falsafiy tahlil mohiyatidan kelib chiqib, raqobat tushunchasiga yangicha falsafiy ta’rif berishdan oldin, uning metodologik asoslarining mazmun-mohiyatini bilish zarur. Bu xususta O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: «...geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi xalqaro aloqalarda o‘zaro ishonch va hamkorlik munosabatlariga putur yetishiga, qarama-qarshilik va nosog‘lom raqobat kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bunga hammamiz guvoh bo‘lib turibmiz.[6;45]

Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda[7;505], degan edi. Demak, vaziyatning bunday kechishi raqobat tushunchasiga yangicha mazmun berib, uni keng qamrovli falsafiy tushuncha sifatida talqin etishni taqozo etadi. Bu esa ushbu masalaga yangicha metodologik yondashuv asosida faoliyat yuritishni talab qiladi.

O‘zbekistonda raqobatning mohiyatini yangicha mazmunda falsafiy anglashning metodologik[8;183] asoslarini: birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: “Raqobat bor joyda albatta rivojlanish, yangilik bo‘ladi. Xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratib berish maqsadida, eng avvalo, kuchli iqtisodiyotni barpo etish, mamlakatimizning xalqaro maydonda har tomonlama raqobatbardoshligini ta’minlashimiz zarur”[9], O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Raqobat bo‘lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo‘lmaydi. Raqobat – bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir.[10; 393]

uchinchidan, falsafa fanining ontologik, gnoseologik, aksiologik yondashuv tamoyillariga asoslangan ilmiy-amaliy ishlanmalar tashkil etadi.

Hozirgi zamon faylasuflari borliqning namoyon bo'lishini quyidagi shakllarga ajratadilar. Shu shakllarning hatti-harakatlarida raqobat elementlari mavjudmi degan savolga javob topish, raqobatning mavjudligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlaydi.

I. Tabiat borlig'ida raqobatning mavjudligi quyidagilarda ko'rinadi. Bunda tabiat deganda insoniyatni o'rab turgan, butun mavjudotni o'z ichiga olgan olam tushuniladi. U azaliy tabiat va odam qo'li bilan yaratilgan tabiat borlig'ini o'z ichiga oladi. Azaliy tabiat borlig'i notirik va tirik dunyodan tashkil topgan bo'lib, ular tabiat qonunlariga mos ravishda vujudga keladi, rivojlanadi, o'sadi, tug'iladi va o'ladi. O'rnilariga boshqalari paydo bo'ladi. Bu jarayon abadiy davom etadi.

Azaliy tabiat borlig'ida tirik tabiat elementlari – o'simliklar dunyosi va hayvonot olamiga xos bo'lgan xususiyatlar mavjud bo'lib, ular ichida raqobat, ya'ni yashash uchun kurash masalasi alohida o'rin egallaydi.

Hozirgi kunda o'simliklarning 500 ming va hayvonlarning 1,5 million turlari mavjud. Ularning bir qismi yovvoyi va bir qismi xonakilashtirilgan, madaniylashtirilgan tarzda yashashga qodir bo'lib, ularning ichida va ular o'rtasida har tomonlama raqobat mavjuddir. Bu mavzuda tadqiqot olib borgan olim, evolyusion nazariyaning asoschisi Ch.Darvin o'zining «Turlarning paydo bo'lishi» (1859), «Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish» (1871) kabi asarlarida organik olam evolyusiyasining harakatlantiruvchi kuchlari: irsiyat, o'zgaruvchanlik, raqobat, yashash uchun kurash va tabiiy tanlanish ekanligini ko'rsatib o'tadi. Shu bilan bir qatorda Ch.Darvin turlar ichidagi raqobat mavjudligini bir qancha ilmiy va amaliy dalillar asosida isbotlab beradi. Shunga muvofiq hayvonot olamidagi turlar o'rtasidagi raqobat uch xil shaklda kechadi.

1. Turlar ichidagi raqobat. Buni bir turga mansub bo'lgan hayvonlar, masalan, kiyiklar, zebralar, fillar, asalarilar, chumolilar va boshqalarning oziq-ovqat topish, topilgan oziq-ovqatlarni bo'lib olish, ozuqasi bor maydonlarni egallash borasidagi o'zaro ziddiyatlari, kurashi jarayonida ko'rish mumkin.

2. Turlararo raqobat. Bir turdagi jonzorlar boshqa turdagi jonzorlar bilan yashash uchun hayot maydoniga raqiblar sifatida kurashga tushadilar. Natijada, birlari g'olib, ikkinchilari esa mag'lub bo'ladilar. O'zbekiston hududida Hindistondan kelgan maynalarning ko'payishi oqibatida boshqa qushlarning ular bilan bo'layotgan raqobatda yutqazib, asta-sekin kamayib ketayotganligida uchratish mumkin. Shuningdek, tirik tabiatda bir xil organizmlarning boshqa organizmlar tanasida parazitlik bilan hayot kechirishi tufayli, ularning yashash uchun kurash borasidagi raqobatbardoshlik tizimini ishdan chiqarayotganligi, ba'zi yirtqich hayvonlarning o'txo'r hayvonlar bilan oziqlanishi tufayli o'txo'rlarning turlararo raqobatga bardosh berolmasdan yo'q bo'lib ketayotganliklari hamdalil bo'la oladi.

3. Turlarning tabiat noqulay sharoitiga moslashishi borasidagi raqobati. Buni, o'simliklar dunyosi va hayvonot olamining tabiat fasllariga qarab moslashishi, ya'ni o'z ranglarini o'zgartirishi, niqoblanishi, ogohlantiruvchi, taqlid qiluvchi turlarga kirishida, masalan, beshiktervatar yoki ninachi yashil barglar orasida yashil rangga, shimolda yashaydigan ayiq oq rangda, nina baliq suv o'ti shaklida, tilla qo'ng'izlar ogohlantiruvchi, zaharsiz ilonlarning zaharli ilonlarga, zaharsiz arilarning zaharli arilarga taqlid(mimikriya) qilgan holda harakatlanishida ko'rish mumkin. Turlarning bundan ko'zlagan maqsadi tabiiy sharoitga moslashib, raqobat kurashida o'zini asrab qolishdan iboratdir.

Inson borlig'ida raqobatning mavjudligi quyidagilar orqali ifodalanadi. Hozirgi zamon falsafiy tadqiqotlaridan ma'lumki, inson bioijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Shunga ko'ra uning jismoniy tuzilishi biologik omillar majmuasidan iborat bo'lib, u tabiat borlig'idagi raqobat turlarining barchasini o'zida mujassamlashtirgan holda hatti-harakatlar sodir etadi.

O'zbekistonda yashayotgan 32,2 million kishining mavjudligi inson borlig'ini tasdiqlovchi dalil bo'lib, erkin va farovon yashash maqsadida ularning moddiy va ma'naviy borlig'ida kechayotgan qarama-qarshi jarayonlar, ular o'rtasidagi raqobatli munosabatlarning ontologik asoslarini tashkil etadi.

Raqobatning ontologik tabiatidan kelib chiqqan holda unga falsafiy ta'rif berishdan oldin, uning etimologiyasini ko'zdan kechirish zarur bo'ladi. Chunki masalaga bunday yondashish tushunchalarga falsafiy ta'rif berishda mazmun va shakl o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqobat so'zi arabcha «raqib» so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan «soqchilikda turuvchi», «nazoratchi», «kuzatuvchi», «ayg'oqchi», «nozir», kundalik hayotda esa: 1) dushman, ag'yor, yov; 2) biror narsa, kimsa uchun talashuvchilar, kurashuvchilar, raqobat qiluvchilar (bir-biriga nisbatan); 3) sport o'yinlari, tortishuv, munozara va sh.k.da qarama-qarshi tomonlar (bir-biriga nisbatan) degan ma'nolarni anglatish uchun ishlatiladi[11; 360-361].

Xorijiy adabiyotlarda «raqobat» so'zining sinonimi sifatida «konkurensiya» termini qo'llaniladi. Bu termin lotincha «concurrenta»—«to'qnashmoq», «duch kelmoq» degan so'zlardan olingan bo'lib, birinchidan, biron bir narsaga erishish yo'lida eng yaxshi natijalarni qo'lga kiritish uchun bo'ladigan bellashuv; ikkinchidan, tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida qulay sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tovarlarni ko'proq sotish evaziga foyda olish uchun olib boriladigan kurash; uchinchidan, talabgorlar, raqiblar kurashi, degan ma'nolarni anglatish uchun ishlatiladi[12; 245].

Raqobat tushunchasiga berilgan ushbu falsafiy ta'rif, uning ontologik tabiatga ega bo'lgan hodisa ekanligini o'zida aks ettirgan holda: birinchidan, raqobatning nafaqat iqtisodiy tushuncha, balki, tabiat va jamiyatning barcha sohalariga daxldor bo'lgan ob'ektiv fenomenligini anglatuvchi

ijtimoiy falsafa kategoriyasi; ikkinchidan, raqobat o'z manbai, mazmuni jihatidan ob'ektiv, shakl jihatidan esa sub'ektiv bo'lgan, moddiylik va ma'naviylikni o'zaro bog'lab, ularni harakatga keltiruvchi omil; uchinchidan, raqobat insonning bilish jarayonlarida munozara, bahs, bellashuv shakllarida o'zligini namoyon qilishi tufayli ilmiy bilishda metodologiya; to'rtinchidan, raqobat ijtimoiy hayotning barcha sohalariga daxldor bo'lganligi sababli gnoseologiyada tushunchalarni integratsiyalovchi vosita sifatida o'zligini namoyon qiladi.

Xulosa. Raqobat tushunchasiga yuqorida berilgan falsafiy ta'rifdan ham ma'lum bo'ldiki, raqobat nafaqat ob'ektiv tabiat-mazmunga, balki, gnoseologik xususiyatlarga ham ega bo'lgan falsafiy kategoriyadir. Raqobatning gnoseologik mazmuni – taraqqiyot tamoyiliga asoslanib, birinchidan, har bir narsaning asl mohiyati uning ichida bo'ladigan hodisalar o'rtasidagi o'zaro raqobat kurashi natijasida yuzaga chiqishida; ikkinchidan, yuzaga chiqqan asl mohiyatni bilish asosida uni yanada takomillashtirib yangi raqobat maydoniga kiritish mumkinligida; uchinchidan, raqobatlashuvchi tomonlarning kuchli va zaif tomonlarini bilish orqali, ularni ilmiy falsafiy tahlildan o'tkazib, kimning g'olib va mag'lub bo'lishini ilmiy bashorat qilish bilan ifodalanadi.

Umuman olganda raqobat tushunchasining gnoseologik xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi .

1. Raqobat orqali tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning foydali yoki zararli xususiyat, mohiyatini bilishga bo'lgan shaxsiy ishtiyoq kuchayadi, natijada raqobatlashuvchilarning soni oshib, u keng qamrovli jarayon tusini oladi.

2. Raqobat tufayli foyda yoki zarar bilan ishlayotgan shaxs, mehnat jamoalari aniqlanadi, zarar bilan ishlayotganlar foyda keltirayotgan jamoalar tarkibiga qo'shib yuboriladi. Bu esa ularning yetakchi o'ringa chiqib olishiga imkoniyat yaratib beradi.

3. Raqobat ilm-fan, texnika va texnologiyalar sohalaridagi maxsus bilimlarni egallashni, ularni ijtimoiy -iqtisodiy hayotga joriy etishni taqozo etadi. Natijada, bajarilayotgan har qanday faoliyatning samaradorligi oshib, uning raqobatbardoshligi ga erishiladi.

4. Raqobat har qanday bajarilishi lozim bo'lgan vazifa ning mohiyatini aniq bilishni taqozo etadi. Bu esa mazkur ishni kam kuch sarflab bajarishga olib keladi va raqobatlashuv jarayonini optimallashtiradi.

5. Sog'lom raqobat tufayli jamiyatni boshqarish usullari tobora takomillashib boradi. Natijada, u jamiyatni demokratik tarzda boshqarishning muhim elementiga aylanadi.

6. Raqobat shaxsning jamiyatdagi ehtiyoj va manfaatlarini bilish orqali, ularni qondirishning muhim usullaridan biri sanaladi.

7. Raqobat tufayli jamiyat hayotining barcha sohalaridakishilarning bir birlari bilan moslashuviga, moddiy va ma'naviy faoliyatlarining esa lokal va global, gorizontaal va vertikal tarzda integratsiya va diversifikatsiyalashuvining tobora ken gayib borishiga olib keladi.

8. Raqobat gnoseologik xususiyatga ega bo'lganligi sababli u insontomonidan boshqariladi, t akomillashtiriladi, uning yangi shakllari ixtiro qilinadi va amaliyotga joriy qilinadi. Zero, raqobat kishilarning olamdagi voqealarning mohiyatini bilish orqali muayyan maqsadga erishish uchun o'zaro bellashuvi sifatida ijtimoiy turmushda namoyon bo'lar ekan, u jamiyat moddiy va ma'naviy hayoti jarayonining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi.

Yangi rivojlanish bosqichida mamlakatimizda raqobat va uni tashkil etishni har tomonlama, ya'ni tabiiy, ijtimoiy omillar va inson tafakkurining uyg'unligi va ziddiyatlaridan kelib chiqqan holda dialektik tarzda tadqiq etish ijtimoiy falsafaning eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хайек Ф.А. Познание, конкуренция и свобода. –Санкт-Петербург: Пневма, 1999. –С.118.
2. Азоев Г.Л. Конкуренция: анализ, стратегия и практика. Монография. –Москва: Центр экономика и marketinga, 1996. –S.5.
3. Qodirov A. Iqtisodiyot nazariyasi. –Toshkent: Toshkent davlat texnika universiteti, 2002. –B.77.
4. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. –Toshkent: Sharq, 2005. –B.223.
5. Qodirov A.Q., Tursunov A.M., Turg'unov U. Iqtisodiyot nazariyasi. –Toshkent: TDTU, 1997. –B.222.
6. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishini ta'minlash –xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir// Uning o'zi. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. –B.45.
7. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir// Uning o'zi. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild. –Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. –B.505.
8. Metodologiya (yun.metodos bilish yoki tadqiqot yo'li va logos-so'z, nazariya, ta'limot) – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot// Falsafa: ensiklopedik lug'at. –Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. –B.183.
9. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir// Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil, 8 dekabr. №47 (6941)
10. Karimov I.A.O'zbekiston XXI asrga intilmoqda// Uning o'zi. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. –B.393.

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III jild. –Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –B.360-361.
12. Словарь иностранных слов. –Москва: Русский язык, 1985. –С.245.